

O'QUVCHILARNING LUG'AT BILAN ISHLASH MALAKALARINI SHAKLLANTIRISH

Jo'rayeva Shoxista Baxtiyorovna

Lingvistika (nemis tili)

2 kurs magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o'quvchilarning lug'at bilan ishlash uchun zarur malakalari va lug'at bilan ishlash malakalarini shakllantirish uchun muayyan ish turlari, ularning imlo savodxonligini oshirish, so'z boyligini rivojlantirish uchun esa o'ziga xos maxsus mustaqil ish turlari to'g'risida qisqacha yoritilgan.

Lug'atlardan tez va to'g'ri foydalanish uchun o'quvchi zarur malakalarga ega bo'lishi lozim. Bu malakalardan eng muhimi alfavit tartibini yaxshi bilishdir. Alfavitni yoddan bilmagan o'quvchi lug'atdan zarur so'zni tez topa olmaydi. Shuning uchun boshlang'ich sinflardayoq o'quvchilarning alfavit tartibini yaxshi bilishlariga erishish va izchil kursni o'rganish jarayonida bu borada muntazam ish olib borishga to'g'ri keladi. Lug'at bilan ishlash uchun zarur malakalardan yana biri ulardan maqsadga muvofiq ravishda foydalanishdir. Masalan, sininimik qatorlar hosil qilish zarur bo'lsa, imlo lug'atiga murojaat etilmaydi. Topshiriqni bajarish uchun qaysi lug'atga murojaat etish kerakligini bilgan bola, shubhasiz, undan samarali foydalana oladi. Lug'atlar turli tuman bo'lgani kabi, ular bilan ushlash usullari ham rang-barangdir. O'quvchilarning lug'at bilan ishlash malakalarini shakllantirish uchun muayyan ish turlari talab etilsa, ularning imlo savodxonligini oshirish uchun tamoman bohsqa, so'z boyligini rivojlantirish uchun esa o'ziga xos maxsus mustaqil ish turlaridan foydalanish talab qilinadi.

“Imlo lug'ati” bilan ishlash. “Imlo lug'ati” faqat o'quvchilarning imlo savodxonligini emas, balki so'z boyligini oshirishda ham muhim qo'llanmadir. O'zbek tilining barcha bo'limlarini o'rganishda “Imlo lug'ati” dan unumli foydalanish kerak. Masalan, “Fonetika, orfoepiya, grafika va orfografiya” bo'limini o'rganishda **a, i, u, o'** harflari ishtirok etgan so'zlar topish, **u – o', i – u, a – i** va h.k. juftlar bilan farqlanuvchi so'zlar tanlash, birinchi bo'g'inida **u, o'**, ikkinchi bo'g'inida **u** yoki **i** kelgan so'z juftlari (urush – urish, tushum - tushim va h.k.) ustida ishlash, **i-u** tovushlari (harflari)ning tushib qolishi, bu tovushlar tushib qolgan so'zlar ro'yxatini tuzish: **o–a** bilan farqlanuvchi so'z juftlar (ana – ona, ata –ota va h.k.)tanlash, **i-e** (e) bilan farqlanuvchi so'z juftlarini topish (ish –esh, bil –bel, tish – tesh kabi) ishlarini bajarishda “Imlo lug'ati” zarurdir.

“Ot” so‘z turkumini o‘rganishda otlarning ma‘no guruhlariga misollar tanlash, juft shaxs otlari, qo‘shib va ajratib yoziladigan qo‘shma otlar ro‘yxatini tuzish, “sifat +turdosh ot”, “son + turdosh ot”, “ot +fe‘l + - ar” qoliqli hosilalar ustida ishlash kabi mustaqil ishlar shu lug‘at yordamida bajariladi.

Xullas, “Imlo lug‘ati”dan ona tilining barcha bo‘limlarini o‘rganishda unumli foydalaniladi. U o‘quvchining doimiy yo‘ldoshi, darslik materilallarini to‘ldiruvchi zarur qo‘llanma sanaladi.

Entsiklopediya va izohli lug‘atlar bilan ishlash. Ensiklopediya ilm-fanning hamma sohalarini o‘z ichiga olagan yoki biror soha bo‘yicha keng, to‘liq ma‘lumot beradigan lug‘at tarzidagi ilmiy to‘plam yoki qomusdir¹. O‘quvchi bu qomusdan barcha jumboqlarga javob topadi, istagan bir tushuncha haqida keng va atroflicha ma‘lumot oladi. Ayniqsa, o‘quvchilar lug‘atini yangi tushunchalar bilan boyitishda, bu tushunchalarni ularning iste‘moliga ko‘chirishda ensiklopediya lug‘atlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Ona tili mashg‘ulotlarida maktab o‘quvchilari uchun ixtisoslashtirilgan “U kim – bu nima” (ikki tomlik) ensiklopediyasidan unumli foydalanish mumkin. O‘quvchilar ushbu qomusdan foydalanib, ma‘lum bir sohaga taalluqli tushunchalar ro‘yxatini tuzishlari, bu tushunchalarning ma‘nosini aniqlashlari, tushuncha va so‘z orasidagi farqni bilib olishlari kerak.

Izohli lug‘atlar ona tili mashg‘ulotlarida tez –tez kerak bo‘ladigan qo‘llanmalardir. Ulardan unumli foydalanish o‘quvchilar nutqini ko‘p ma‘noli so‘zlar, ma‘nodosh, uyadosh va qarama – qarshi ma‘noli so‘zlar, tasviriy ifoda va iboralar, frazeologik birikmalar bilan boyitish, ma‘nosi har xil, shakli bir-biriga yaqin so‘zlar (paroimlar)ni farqlash, so‘zlarning ma‘no nozikligi va qaysi uslubga xosligini aniqlashga yordam beradi. Ayniqsa, lug‘atdan foydalangan holda ayni bir so‘zning ham turli ma‘nolarini, ham ma‘nodoshlarini, ham uyadoshlarini aniqlash maqsadga muvofiqdir. Xullas, ona tili mashg‘ulotlarida lug‘atlardan foydalanish o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish, so‘zdan nutqda to‘g‘ri va o‘rinli foydalanish malakalarini shakllantirishga yoram beradi. Ayniqsa, ona tili o‘qitishning amaliy yo‘nalishini kuchaytirish, mashg‘ulotlarning foydalilik darajasini oshirishni lug‘atlarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Ona tili o‘qituvchisi lug‘atlardan foydalanishni hayotiy zaruriyat, ehtiyojga aylantirish, o‘quvchilarni ulardan foydalanish malaka va ko‘nikmalari bilan qurollantirilishi lozim.

O‘quvchilarning gap ustida ishlash va gap tuzish mahoratini kengaytirish. *Gap* – fikrning eng kichik bo‘lagi. O‘quvchi gap orqali kuzatgan maqsadi haqida xabar berishi, tinglovchidan biror voqea – hodisani so‘rashi, his-hayajon va buyurish kabi mazmunni ifodalashi mumkin. Ma‘lumki, ona tilining qurilishi, uning tayanch vositalari bolaning ongida shakllangan bo‘lib, u gapdan bemalol foydalanish ko‘nikmalariga egadir. Ona tilining grammatik qurilishidan tamomila bexabar kishi ham gapni Grammatik jihatdan to‘g‘ri qura oladi. Hech vaqt hali yozish va o‘qishni

bilmagan bola ham “*Men yaqinda maktabga boraman*” gapini “*Men yaqinda maktabni boraman*” shaklida qurmaydi. Maktab bolalarning gap qurish mahoratini kengaytiradi va takomillashtiradi. Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilar gapning bosh bo‘laklari: ega va kesim gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari: darak, so‘roq, buyruq va undov gaplar, gapning tizilishiga ko‘ra turlari: soda va qo‘shma gaplar kabi zaruriy materillar bilan tanishganlar va bu, shubhasiz, ularning gap qurish mahoratini kengaytiradi. Ona tilining izchil kursini (5-9sinflar) o‘rganishda o‘quvchilardagi mavjud malaka va ko‘nikmalar rivojlantiriladi. Ular gap orqali fikrni ixcham, to‘g‘ri vat ta’sirchan ifodalashning turli yo‘llari, usullari bilan tanishadilar: gap qurishning nozik “sir”larini egallaydilar. Ona tili mashg‘ulotlarida gap ustida ishlashning yo‘llari jua rang-barangdir. Biz ularning ayrimlariga to‘xtatilib o‘tamiz: 1. **Gapni ixchamlashtirish.** Ixcham fikr – ta’sirchan fikrdir. Shuning uchun ona tili mashg‘ulotlariga qo‘yiladigan eng asosiy talablardan biri fikrni ixcham shaklda bayon qilishga o‘rgatishdir. O‘quvchi gap qurishda birorta ortiqcha so‘zni ishlatmasligi, maqsadni ofodalovchi so‘zno topib qo‘llashi, so‘z va so‘z birikmalarini to‘g‘ri aloqaga kiritish, gap bo‘laklarining oddiy va o‘zgargan tartibiga qat’iy amal qilishi lozim. 2. fikrni ixcham bayon qilish uchun o‘zbek tilining imkoniyatlaridan to‘g‘ri foydalanishga to‘g‘ri keladi. O‘quvchilarni berilgan gaplardan mazmunga salbiy ta’sir etmaydigan ma’lum bir so‘zni tushirib qoldirishga o‘rgatish gapni ixchamlashtirishga o‘rgatishning eng asosiy yo‘llaridan biridir. Masalan, 1) *Qurultoyga kelgan odamlarga juda katta hurmat ko‘rsatildi.* – *Qurultoyga kelganlarga juda katta hurmat ko‘rsatildi.* 2) *Men uyda o‘tiribman.* – *Me uydaman.* 3) *Ishlagan paytda xalaqit bermang.* – *Ishlaganda xalaqit bermang.* 4) *Birlashgan odam yovni qaytarar.* – *birlashgan yovni qaytarar.* 5) *Mehmon yaxshi odamga o‘xshaydi.* – *Mehmon yaxshiga o‘xshaydi* kabi. Ba’zan gapda ayrim so‘zlarni takror qo‘llash fikrning ta’sirchanligini oshiradi. Masalan: 1) Yaxshi niyat – yorti davlat, yomon niyat – yorti mehnat (Maqol). 2) yaxshi so‘z jon ozig‘I, yomon so‘z qozig‘I (Maqol). 3) Oq it, qora it – baribir it (Matal). O‘quvchilarni zarur o‘rinlarda soz’ni takroriy qo‘llashga o‘rgatish ularning nutqi rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bollar takrorlanayotgan so‘zning qanday qo‘shimcha ma’no berayotganligini sharhlashlari, o‘zlari ham shunday gaplar tuzishni davom ettirishlari lozim. 2. **Gapni kengaytirish va toraytirish.** Gapni kengaytirishning eng qulay usuli kesimdan savol berish orqali uning egasi va ikkinchi darajali bo‘laklarini topib qo‘yishdir. Masalan, o‘quvchilarga “*Boraman*”, “*Uchishdi*”, “*Ko‘rganmisiz?*” singari bir bo‘lakli gaplarni berib, ularni avval ikki bo‘lakliga (*Men boraman. Qushlar uchishdi. Siz ko‘rganmisiz?* kabi), so‘ngra ko‘p bo‘lakliga (*Qushlar qaerga?*) uchishdi – *Qushlar issiq o‘lkalarga uchishdi.* – *Qushlar (qachon?) issiq o‘lkalarga uchushdi.* – *Qushlar kuzda issiq o‘lkalarga uchishdi va h.k.)* aylantirish topshiriladi. Ayni vaqtda soda yoyiq gaplarni yig‘iq gaplarga aylantirib, gapni toraytirish usulidan ham foydalanish mumkin. 3. **Gapning mazmunini saqlagan holda shaklini o‘zgartirish.** Mustaqil ishning bu turidan 5-7 sinflarda ham, 8-9 sinflarda ham unumli foydalansa

bo'ladi. Fonetika, leksikologiya va morfologiyani o'rganishda (5-7-sinflar) bu ish ko'proq berilgan gaplarda so'zlarni ularning ma'nodoshlari va uyadoshlari bilan almashtirish orqali, sintaksisning izchil kursini o'rganish jarayonida esa (8-9-sinflar) gap bilan ifodalangan, kesim, ega, to'ldiruvchi, hol, aniqlovchilarni kengaytirilgan birikmalarga aylantirish, soda gaplardan qo'shma gaplar va aksincha, qo'shma gaplardan soda gaplar hosil qilish, ko'chirma gaplarni o'zlashtirma gaplarga va o'zlashtirma gaplarni ko'chirma gaplarga aylantirish kabi usullar bilan amalgam oshiriladi. Masalan, "Kesim" mavzui o'rganilayotganda kesimning gap bilan ifodalanishi, ularda ko'rsatish olmoshlari, **-ki bog'lovchisining** vazifasi, bu gaplarda, vergul (**-ki bo'lsa**) va ikki nuqtaning (**-ki bo'lmasa**) ishlatilishi holatlariga misollar keltiriladi va ayni vaqtda shunday gaplarni kengaytirilgan birikmalarga aylantirish topshiriladi (masalan: *Maqsadimiz shuki, bolalar bo'sh vaqtlarida foydali ishlar bilan shug'ullanishsin. Maqsadimiz: bolalar bo'sh vaqtlarida foydali ishlar bilan shug'ullanishsin. Bizning maqsadimiz – bolalarning bo'sh vaqtda foydali ish bilan shug'ullanishi. Bizning maqsadimiz bolalarning bo'sh vaqtda foydali ish bilan shug'ullanishidir* kabi). Bu singari amaliy ishlarning ahamiyati shundaki, o'quvchi gapning mazmunini saqlagan holda, shaklini o'zgartiradi, hamda bunday gaplarda tinish belgilarining qo'yilishini puxta o'zlashtirib oladi. **4. Matnni gaplarga ajratish.** Mustaqil ishning bu turidan boshlang'ich sinflarda va ayniqsa, 5-6-sinflarda ko'proq foydalanishga to'g'ri keladi. O'quvchi tinish belgilar tushirib qoldirilgan matnni gaplarga ajratar ekan, har bir gapning tugallangan ohang va nisbiy tugal mazmunga ega ekanligini tushunib oladi. Bu esa gap haqidagi tasavvurlarni kengaytiribgina qolmay, balki gap qurish san'atini mukammalroq egallashga ham yordam beradi. **5. Ikkita va undan ortiq soda gapni birlashtirib, bitta sodda yoki qo'shma gap tuzish.** Masalan, "Bahor erta keldi", "Ekish barvaqt boshlandi" qabilidagi gaplarni berib, ulardan bir gap hosil qilishni topshirsa bo'ladi. O'quvchilar uni quyodagi usullar bilan birlashtirib, bir gapga aylantiradilar. *Bahor erta keldi, ekish barvaqt boshlandi. Bahor erta keldi-yu, ekish barvaqt boshlandi. Bahor erta keldi va ekish barvaqt boshlandi. Bahor erta keldi, shuning uchun ekish barvaqt boshlandi. Bahor erta kelgach, ekish barvaqt boshlandi. Bahor erta keldimi, ekish barvaqt boshlandi* kabi. Mustaqil ishning bu turidan ona tilininng barcha sathlarini o'rganishda unumli foydalansa bo'ladi. **6. Gapni tahrir qilish.** Mustaqil ishning bu turi gaplarda uchraydigan uslubiy xatolarning oldini olish va bartaraf etish maqsadida o'tkaziladi. O'quvchilar yo'l qo'yilgan xatoni tuzatar ekanlar, uslub jihatidan to'g'ri qurishning o'ziga xos xususiyatlarini bilib oladilar. Tahrirdan o'quvchi ma'lum bir so'z o'rinda boshqa so'zni qo'llashi, gapning mazmunini saqlagan holda shaklini o'zgartirishi, uning ta'sirchanligini oshirish maqsadida ma'lum bir so'zni qo'shishi yoki qisqartirishi mumkin. **7. Gaplar tuzish.** O'quvchilarning mustaqillik darajasidan kelib chiqib, ular tuzadigan gaplarni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

- berilgan ma'lum bir so'z, so'z birikmalari, tasviriy ifoda va iboralardan ydalanib, gaplar tuzish;
- berilgan andazaga qarab gap tuzish;
- berilgan avzuli rasmdan foydalanib gap tuzish,
- o'qituvchi yoki o'uvchilar tavsiya etgan ma'lum bir mavzuga oid gaplar tuzish.

Xullas, ona tilining izchil kursini o'rganish jarayonida gap ustida ishlash va gaplar tuzish barcha mashg'ulotlarning muhim tarkibiy qismiga aylanmog'I lozim. Shunday qilib, yuqorida tilga olingan ish usullari: gapni ixchamlashtirish va kengaytirish, mazmunni saqlagan holda shaklini o'zgartirish, matni gaplarga ajratish, ikki va undan ortiq soda gapni turli yo'llar bilan birlashtirish, gapni tahrir qilish va takomillashtirish, maqsadni to'g'ri ifodalab, gap yaratish kabilar bolalarning nutqiy taraqqiyotiga samarali ta'sir ko'rsatadi. Yuqori sinflarda ana bir ish turi–ayni bir yozma ma'lumot, axborot (bayonnoma, maqola)ni og'zaki (ma'ruza, chiqish) shaklda tayyorlashdir. O'quvchilar og'zaki o'qib eshittirishga mo'ljallangan matn gaplari qisqa, ixcham, lo'nda bo'lishiga, soda gaplar miqdorini ko'paytirishga, gap tarkibida uzundan-uzoq murakkab sifatdosh, ravishdosh, harakat nomi birikmalarini qo'llamaslikka harakat qiladilar. Gap ustida ishlash og'zaki va yozma nutqni o'stirishning eng muhim tarkibiy qismi bo'lganligi sababli, bu ish uzluksiz ravishda – boshlang'ich sinflardan tortib bitirish imtihonlariga tayyorlanish davrigacha amalgam oshirilmog'i kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Akhrorova R.U. The linguistic image of the world and the gender aspect of the concept of “age” in French and Uzbek languages. Theoretical & Applied Science, – 2021. № 101. – P. 585-589.
2. Akhrorova R.U. The gender aspect of the concept of “age” in French and uzbek. International Journal of Advanced Research in ISSN: 2278-6236 Management and Social Sciences, – 2022. №1. – P. 31-39.
3. Akhrorova, R.U. (2020). Age nominations in linguistic research. Scientific Bulletin of Namangan State University, 2(4), 316-321.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Т.: “Ўзбекистон миллий нашрети” Давлат илмий нашрети. – 680 б. 2006.
5. Содиқова М. Қисқача ўзбекча-русча мақол-маталлар луғати. – Т.: Фан, 1993. – 259 б.